

58.

6. Tursunov, B.S. O‘zbekiston turizm industriyasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali yo‘llari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – 2024. – № 1. – B. 112–125.

7. Umarov, S. R. Mobil marketing vositalari orqali turistik xizmatlar eksportini rag‘batlantirish: iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2021. – 48 b.

8. Industry overview [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://mmaglobal.com/about/industry-overview>

9. Mobile marketing [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://www.opti-move.com/resources/learning-center/mobile-marketing>

10. The essentials of a modern mobile marketing strategy [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://emarsys.com/learn/blog/the-essentials-of-a-modern-mobile-marketing-strategy/>

11. Digital 2024: Uzbekistan [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>

12. Uzbekistan sees lower shadow economy share as cashless payments rise [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://www.euronews.com/business/2026/01/23/uzbekistan-sees-lower-shadow-economy-share-as-cashless-payments-rise>

Maxammadjon ORIFJONOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Sirojiddin ABROROV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, DSc

O‘ZBEKISTONDA TURISTIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston turizm bozorining turistik korxonalar innovatsion faolligini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kiruvchi turist safarlari, turistik firmalar faoliyati, xizmatlar eksportida travel (turizm) ulushi, joylashtirish quvvatlari va innovatsion muhit ko‘rsatkichlari bir tizimda ko‘rib chiqildi. Natijada raqamli platformalashuv, sun‘iy intellektga tayangan shaxsiylashtirish, klasterlashuv, smart va yashil infratuzilma, innovatsion moliyalashtirish hamda kadrlar kompetensiyasini yangilash turistik korxonalar uchun ustuvor strategik yo‘nalishlar ekani asoslandi.

Kalit so‘zlar: turizm, turistik korxonalar, innovatsion faoliyat, raqamlashtirish, sun‘iy intellekt, klaster, smart turizm, eksport, strategik yo‘nalish.


Аннотация. В статье анализируются стратегические направления развития инновационной активности туристических предприятий на рынке туризма Узбекистана. В исследовании в единой системе рассмотрены въездные туристские поездки, деятельность туристических фирм, доля туризма в экспорте услуг, мощности размещения и показатели инновационной среды. Обосновано, что платформенная цифровизация, персонализация на базе искусственного интеллекта, кластеризация, smart- и green-инфраструктура, инновационное финансирование и обновление кадровых компетенций выступают ключевыми стратегическими направлениями для туристических предприятий.

Ключевые слова: туризм, туристическое предприятие, инновационная деятельность, цифровизация, искусственный интеллект, кластер, smart tourism, экспорт, стратегическое направление.

Abstract. The article analyzes the strategic directions for developing the innovative activity of tourism enterprises within the Uzbekistan tourism market. The study considers inbound tourist trips, the performance of travel companies, the share of travel services in total service exports, accommodation capacity, and the broader innovation environment in an integrated manner. The findings show that platform digitalization, AI-based personalization, cluster development, smart and green infrastructure, innovative financing, and the renewal of workforce competencies constitute the core strategic priorities for tourism enterprises.

Keywords: tourism, tourism enterprise, innovative activity, digitalization, artificial intelligence, cluster, smart tourism, exports, strategic direction.

O‘zbekistonda turizm iqtisodiyotning tez o‘sayotgan xizmat tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. So‘nggi ikki yil ichida turist oqimining, joylashtirish quvvatlarining va xizmatlar eksportining jadal o‘sishi turistik korxonalaridan an‘anaviy ekstensiv kengayish modelidan innovatsion boshqaruv modeliga o‘tishni talab qilmoqda. “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi, turizm sohasini raqamlashtirish va turizm xizmatlarini yagona platformaga integratsiyalash bo‘yicha 2024-yilgi Hukumat qarori hamda 2024-2025-yillarda qabul qilingan turizm klasterlari va hududiy qo‘llab-quvvatlashga oid hujjatlar mazkur o‘zgarishlar uchun institutsional asos yaratdi [1-5]. Shu bilan birga, o‘sishning o‘zi innovatsion samaradorlikni anglatmaydi. Turistik korxonalarda raqamli savdo kanallari, dinamik narxlash, mijozlar xulqini tahlil qilish, sun‘iy intellektga asoslangan tavsiya tizimlari, “smart” joylashtirish yechimlari va yashil texnologiyalar hali ham bir xil darajada joriy etilmagan. Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda turistik korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.



1-rasm. O‘zbekistonga kiruvchi turist safarlari dinamikasi, (ming,safar)

Manba: [7],[11] asosida muallif tomonidan tuzildi


2024-yilda O‘zbekistonga kiruvchi turist safarlari 7 957,2 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 11 679,6 ming safargacha ko‘tarildi. Demak, bir yil ichida kiruvchi oqim qariyb 46,8 foizga oshdi. 2024-yil bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlarda safarlar soni hisobga olingani, ya‘ni bir shaxs bir necha marta safar

qilsa, alohida holat sifatida qayd etilishi alohida ta'kidlanadi [7;11]. Bunday dinamik o'sish turistik korxonalar uchun mijoz segmentatsiyasi, xizmatlarni shaxsiylashtirish, mavsumiylikni boshqarish va platforma integratsiyasini strategik masalaga aylantiradi.

Shu bilan bir qatorda bozorda turistik firma va tashkilotlar faoliyati ham kengaymoqda. 2024-yilda respublikada 743 ta turistik firma va tashkilot faoliyat yuritib, 1 972,9 ming kishiga xizmat ko'rsatdi hamda 601,5 ming yo'llanma sotdi. 2023-yilga nisbatan turistik korxonalar soni 25,3 foizga, xizmat ko'rsatilganlar soni 70,5 foizga, sotilgan yo'llanmalar hajmi esa 2,3 baravarga yaqin ko'paydi [7]. Bu shuni anglatadiki, bozor miqyosi endi oddiy vositachilik faoliyatidan ko'ra chuqurroq texnologik va boshqaruv innovatsiyalarini talab qiladigan bosqichga yetgan.

Joylashtirish infratuzilmasidagi kengayish ham innovatsion modernizatsiya zaruratini kuchaytirmoqda. 2024-yilda 2383 ta mehmonxona va ularga o'xshash joylashtirish vositalari 38 075 ta xona va 79469 ta o'rin bilan xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 2025-yilda mamlakat bo'yicha jami joylashtirish vositalari soni 6921 taga, o'rinlar soni 185600 taga yetdi. Faqat 2025-yilning o'zida 1023 ta yangi joylashtirish vositasi ishga tushirilgani turizm taklifining ko'lam jihatdan kengayib borayotganini ko'rsatadi [7;10]. Biroq bunday o'sish sifat, bandlik darajasi, energiya samaradorligi va mijozlar tajribasini boshqarish bo'yicha yangi standartlarni talab qiladi.

Turizmning tashqi iqtisodiy ahamiyati ham sezilarli ravishda ortmoqda. 2024-yilda xizmatlar eksporti 7 204,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, uning 48,8 foizi travel (turizm) hissasiga to'g'ri kelgan; bu 3 519,0 mln. dollarlik turizm eksportini anglatadi. 2025-yilda xizmatlar eksporti 9 760,4 mln. dollarga yetdi va travel (turizm) ulushi 50,0 foizni tashkil etdi, ya'ni turizm eksporti 4 880,3 mln. dollarga ko'tarildi. Demak, travel (turizm) xizmatlari qiymati bir yil ichida 38,7 foizga oshgan [8]. Bu holat turistik korxonalar innovatsion salohiyatining nafaqat ichki bozor, balki valyuta tushumlari va eksport diversifikatsiyasi uchun ham muhimligini ko'rsatadi.



2-rasm. Turistik firmalar faoliyati natijalari, (ming,birlik).

Manba: [7] asosida muallif tomonidan tuzildi.

Innovatsion muhitning umumiy milliy foniga e'tibor qaratilsa, 2024-yilda jo'natilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi 63 604,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 14,1 foiz o'sgan [9]. Demak, turistik korxonalar faoliyatini innovatsionlashtirish uchun iqtisodiyotda texnologik modernizatsiya va

innovatsion yechimlarni joriy etishga nisbatan umumiy institutsional tayanch kuchayib bormoqda.

1-jadval

Turistik firmalar va tashkilotlar faoliyatining 2020-2024-yillardagi dinamikasi. Manba: [7] asosida muallif tomonidan tuzildi

Yil	Turistik firmalar soni, (birlik)	Xizmat ko'rsatilganlar, (ming kishi)	Sotilgan yo'llanmalar, (ming)
2020	337	212,3	78,2
2021	288	577,8	147,7
2022	348	673,7	95,3
2023	593	1 157,1	262,4
2024	743	1 972,9	601,5

Turistik korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. Birinchi strategik yo'nalish - turizm xizmatlarini platformalashtirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni joriy etishdir. 2024-yil 7-dekabrda 820-son qaror turizm sohasini raqamlashtirish va turizm xizmatlarini yagona platformaga integratsiyalash vazifasini kun tartibiga qo'ydi [3]. Korxonada bu onlayn bronlash tizimlarini yagona reyestrlar va to'lov platformalari bilan ulash, mijoz yo'l xaritasini mobil ilovalar orqali boshqarish, CRM va BI-tizimlarni joriy etish, shuningdek real vaqt rejimida talab, narx va bandlik monitoringini yo'lga qo'yishni anglatadi. Mazkur yo'nalishning asosiy afzalligi – vositachilik xarajatlarini kamaytirish va sotuv kanalini bevosita boshqarishdir;

ikkinchi yo'nalish – sun'iy intellekt, analitika va shaxsiylashtirishga o'tishdir. 2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi va "Raqamli O'zbekiston – 2030" hujjatlari turizm uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi [2;6]. Mehmonxona va turagentliklar AI-chatbotlar, ko'p tilli tavsiya tizimlari, dinamik narxlash, prognozli bandlik boshqaruvi, sodiqlik dasturlarini segmentlash hamda mijoz fikrlarini avtomatik tahlil qilish vositalarini joriy etsa, xizmat sifati va bir mijozdan olinadigan daromad oshadi. Ayniqsa, 2025-yilgi Hotel Business Forum doirasida "Artificial Intelligence: The New Trend in Tourism and Hospitality" mavzusining markazga chiqishi bu trendning amaliy dolzarbligini tasdiqlaydi [10].

uchinchi yo'nalish – hududiy diversifikatsiya va klasterli rivojlanishdir. 2024-yil oxirida turizm klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan 915-son qaror hamda tog'li va cho'l hududlarda turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga oid 2025-yilgi 383-son qaror innovatsion faollikni faqat yirik shaharlarda emas, balki yangi hududiy o'sish nuqtalarida ham rag'batlantirish imkonini beradi [4;5]. Klaster yondashuvi transport, ovqatlanish, joylashtirish, madaniy dasturlar, hunarmandchilik, agro va eko-marshrutlarni yagona qiymat zanjiriga birlashtiradi. Natijada korxonada innovatsiyasi alohida mahsulot emas, balki hududiy servis ekotizimiga aylanadi;

to'rtinchi yo'nalish – smart va yashil infratuzilma hisoblanadi. Joylashtirish obyektlari sonining keskin ortishi energiya tejamkor boshqaruv, suv sarfini monitoring qilish, chiqindilarni saralash, kontaktsiz check-in/check-out, aqlli xavfsizlik va sensorli boshqaruv tizimlarini joriy etishni talab qiladi. Bunday innovatsiyalar boshlang'ich xarajatni oshirsa-da, uzoq muddatda operatsion

xarajatlarni pasaytiradi va xalqaro mehmonlar uchun xizmat sifatini yaxshilaydi. 2025-yilda joylashtirish vositalari soni 6 921 taga yetgani hamda 185 600 o‘rin shakllangani sharoitida aynan samaradorlik va sifat omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [10];

beshinchii yo‘nalish – innovatsion moliyalashtirish va korporativ hamkorlikni kengaytirishdir. Turistik korxonalar innovatsiyasi ko‘p hollarda kredit, grant, akseleratsiya, IT-kompaniyalar bilan sheriklik va venchur yechimlarsiz jadallashmaydi. Turizm bunday transfer, avvalo, traveltech startaplari, marshrut konstruktorlari, mahalliy kontent platformalari, MICE va event-tech xizmatlari hamda hududiy turistik marketplace-larni qo‘llab-quvvatlash orqali yuz beradi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-549, 18.07.2019. URL: <https://lex.uz/docs/-4428097>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, 05.10.2020. URL: <https://lex.uz/docs/7008256>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turizm sohasini raqamlashtirish va turizm xizmatlarini yagona platformaga integratsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qarori, 07.12.2024. URL: <https://lex.uz/en/docs/7253950>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 915-son qarori, 30.12.2024. URL: <https://lex.uz/docs/7304076>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tog‘li va cho‘l hududlarda turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 383-son qarori, 19.06.2025. URL: <https://lex.uz/docs/7588123>
6. O‘zbekiston Respublikasida sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 358-son qaror, 14.10.2024. URL: <https://lex.uz/docs/7159258>
7. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Development of tourism and recreation in the Republic of Uzbekistan (2024 data), 12.08.2025. URL: https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation_p37860.pdf
8. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Foreign Trade Turnover of the Republic of Uzbekistan, January–December 2024. URL: https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_eng_yanvar-dekabr_2024_p18901.pdf
9. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Science and innovation in the Republic of Uzbekistan, 29.07.2025. URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-innovatsiya-eng-25_07_2025_p64657.pdf
10. Committee on Tourism. The first day of the Hotel Business Forum 2026 took place in Tashkent, 13.02.2026. URL: <https://gov.uz/en/uzbektourism/news/view/132181>
11. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Tourist Flows, January–December 2025. URL: <https://stat.uz/files/617/choraklik-natijalar->

Abduvali ISADJANOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrası professori, i.f.d.
Sarvinoz DJUMABAYEVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

O‘ZBEKISTONDA AGROTURIZM: BARQAROR TURIZM TURI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi, O‘zbekistonda agroturizmning barqaror turizm turi sifatida rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asosiy qism davomida agroturizm tushunchasi, ushbu turizmning rivojlanish tendensiyalari, muammolari va istiqbollari ko‘rib chiqilib, uni barqaror rivojlantirish yo‘llari batafsil yoritilgan. Agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizmni integratsiya qiluvchi soha bo‘lib, qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, fermerlar daromadini diversifikatsiya qilish hamda milliy madaniyatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tezis O‘zbekistonda ekoturizmni yanada rivojlantirishga doir takliflar va xulosalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: agroturizm, barqaror turizm, ekologik turizm, iqtisodiy rivojlanish, qishloq infratuzilmasi.

Аннотация. В данной работе анализируются возможности развития агротуризма в Узбекистане как устойчивого вида туризма. В основной части рассматриваются понятие агротуризма, тенденции его развития, существующие проблемы и перспективы, а также подробно освещаются пути его устойчивого развития. Агротуризм представляет собой сферу, интегрирующую сельское хозяйство и туризм, и играет важную роль в обеспечении экономического развития сельских территорий, диверсификации доходов фермеров, а также в сохранении национальной культуры. Кроме того, в работе представлены предложения и выводы, направленные на дальнейшее развитие экотуризма в Узбекистане.

Ключевые слова: агротуризм, устойчивый туризм, экологический туризм, экономическое развитие, сельская инфраструктура.

Abstract. This thesis analyzes the potential for the development of agritourism as a form of sustainable tourism in Uzbekistan. The main body examines the concept of agritourism, its development trends, existing challenges, and future prospects, while providing a detailed discussion of pathways for its sustainable advancement. Agritourism represents an integrated sector that combines agriculture and tourism, playing a significant role in fostering the economic development of rural areas, diversifying farmers' income sources, and preserving national cultural heritage. Furthermore, the thesis includes proposals and conclusions aimed at further promoting ecotourism development in Uzbekistan.

Keywords: agritourism, sustainable tourism, ecotourism, economic development, rural infrastructure.

Bugungi kunda turizm sohasi jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib, uning barqaror shakllarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, agroturizm qishloq hududlarini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agroturizm rivojlangan mamlakatlarda kengroq